

KOMMUMIKATIV KOMPETENTLIKNI O`STIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR

Xudoynazarova Zulayho Sohibnazarovna

Guliston davlat universiteti “Psixologiya va ijtimoiy fanlar” fakulteti o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13830279>

Annotatsiya. Mazkur maqolada shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy hayotda yoshlarning o‘z o‘rnini topishida ta’lim jarayonini kommunikativ kompetensiya asosida tashkil etishning samarasi va yosh avlodning ijtimoiylashuviga ta’siri haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: modernizatsiya, ijtimoiy hayot, kompetensiya, kommunikativ, boshlang‘ich ta’lim, lug‘at boyligi.

DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE COMPETENCE: PROBLEMS AND SOLUTIONS

Abstract. This article talks about the effectiveness of organizing the educational process on the basis of communicative competence and the impact on the socialization of the young generation in finding their place in the rapidly developing social life.

Key words: modernization, social life, competence, communicative, primary education, vocabulary.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

Аннотация. В статье говорится об эффективности организации образовательного процесса на основе коммуникативной компетентности и влиянии на социализацию молодого поколения в поиске своего места в бурно развивающейся общественной жизни.

Ключевые слова: модернизация, общественная жизнь, компетентность, коммуникативность, начальное образование, словарный запас.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida, modernizatsiyalanayotgan, shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy hayotda ta’lim tizimini tubdan isloq qilish davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Ta’limga innovatsion pedagogik texnologiyalardan unumli foydalana olish bilan bir qatorda ta’limda o‘quvchilarning fanga doir bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish yetarli emasligi qayd etilmoqda. Hozirgi kunda o‘quvchilarda o‘quv predmetlari bo‘yicha faqatgina bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishning o‘zi yetarli emasligi ma’lum bo‘lmoqda.

ASOSIY QISM

Hozirda ta’lim kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi ko‘zda tutilgan ekan, kompetensiya so‘zining ma’nosini ko‘rib chiqamiz. “Competence” so‘zi “to compete” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “musobaqalashmoq”, “raqobatlashmoq”, bellashmoq” degan ma’noni bildiradi. So‘zma-so‘z tarjima qilinsa “musobaqalashishga layoqatlilik” ma’nosida keladi.

Kompetensiyalardan, ta’lim kompetensiyalarni farqlash lozim. Ta’lim kompetensiysi o‘quvchini kelajakdagi to‘la qonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma’lum bir yoshta yetgunga qadar ba’zibir kompetensiyalarni tatbiq eta olmaydi. Lekin, bu degani, ularni o‘quvchida shakllantirilmaydi, degani emas. Bu holatda biz ta’lim kompetensiysi haqida gapiramiz. Masalan, o‘quvchi mактабда fuqorolik kompetensiyasini o‘zlashtirsada, uni to‘laqonli ravishda mактабни tugatganidan so‘ng ishlataadi. Shunga ko‘ra bunday kompetensiyalar, o‘qish davrida ta’lim kompetensiysi sifatida namoyon bo‘ladi. Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo‘yicha yagona ro‘yxati yo‘q. Chunki har bir mamlakatning yoki regionning o‘z an’analari, mentaliteti va o‘ziga xos talablari bor. Kompetensiya –bu jamiyatning o‘z fuqarolariga qo‘yan ijtimoiy buyurtmasi bo‘lib, ularning ro‘yxati ma’lum bir mamlakatdagi yoki regiondagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo‘lmaydi. Masalan Shveysariyaning va Amerika Qo‘shma Shtatlarining iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta’lim statistikasi Milliy institutining “Tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash” nomli loyihasida tayanch kompetensiyalarni qat’iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo‘lmagan.

Kommunikativ kompetensiya jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o‘zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

o‘z fikrini og‘zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbattosh fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;

turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo‘lgan qarorlarni qabul qila olish.

Uzlusiz ta’lim tizimini amalga oshirish jarayonida ko‘ngildagidek o‘qitish va tarbiyalash haqida gap borar ekan, bunday g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan yosh o‘qituvchi kadrlar bilangina amalga oshirish mumkinligini ta’kidlash lozim.

Pedagogik mahorat tug‘ma talant yoki nasldan naslga o‘tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shuning uchun ham pedagogik mahorat hamma o‘qituvchilar uchun standart, ya’ni bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida izlanishi, ijodiy mehnati davomida shakllanadi va rivojlanadi.

Bu o‘rinda ilg‘or o‘qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o‘qituvchi o‘rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o‘z faoliyatini ilg‘or tajribalar bilan boyitishi zarur.

O‘qituvining pedagogik mahorati, asosan, sinfda, auditoriya mashg‘ulotlarida yaqqol ko‘rinadi. Chunki o‘quv mashg‘ulotlari o‘zining mazmun va mohiyatiga ko‘ra o‘qituvchining o‘quv yurtidagi asosiy ishidir. Shuning uchun u ilmiy g‘oyaviy jihatdan yetuk va ommabop bo‘lishi, turmush bilan, o‘quvchi yoki talabalarning tayyorgarlik darajasi bilan uzviy aloqador bo‘lishi zarur. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi bilan talabalar o‘rtasida o‘zaro jonli til muloqoti, fikr almashuv munosabatlari, samimiy hurmat va asosiy maqsadgaerishishda yaqin hamkorlik lozim.

Mazmuni sayoz, amaliy tajribadan, turmushdan ajralib qolgan, umumiy so‘z, quruq nasihatgo‘ylikdan iborat bo‘lgan, rasmiyat uchun yuzaki o‘tkaziladigan dars (ma’ruza) va boshqa o‘quv mashg‘ulotlari o‘quvchi talabalarni qiziqtirmaydi, ularni ilmiy, g‘oyaviy jihatdan yetarli darajada oziqlantirmaydi. Shu sababli, darslarni shunday tashkil qilish kerakki, ularning ta’sirida talabalarda shu fanga nisbatan turli qarashlar, ilmiy tafakkur va e’tiqodlar vujudga kelishi va shakllanishi kerak.

Inson o‘z oldiga qo‘ygan barcha vazifalarni til yordamida muloqot qilish orqali hal qiladi.

Hayotda duch kelinadigan muammolarni hal qilish ko‘proq ularni muhokama qilish, boshqalarga tushuntirib bera olish bilan chambarchasbog‘liq.

Dunyo taraqqiyotida internatsionallashuv, globallashuv va axborotlashtirish tendensiylarining kuchayib borishi kuzatilayotgan bugungi sharoitda uzlusiz ta’lim tizimi ishtirokchilarini samarali muloqotga tayyorlash hamda ularning samarali muloqotga tayyorlashni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘quvchi va talabalarda tildan shunchaki foydalanuvchi shaxs sifatida emas, bujarayonda til orqali o‘z shaxsiy sifatlarini namoyon etuvchi, unga milliy- madaniy, etnik belgilarni singdiruvchi, tilni saqlovchi va kelajak avlodlarga uzatuvchi lisoniy shaxs sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Ta’limning uzlusizligi sharoitida ushbu maqsadga erishish uchun har qanday ta’lim muassasasi bitiruvchisi nafaqat kasbiy kompetensiyalarga, balki poydevorlari maktabda shakllanadigan, so‘ngra oliy ta’limda talabaning kasbiy yo‘nalishiga mos ravishda rivojlanib boradigan kommunikativ xususiyatlarga ham ega bo‘lishi kerak. Oliy ta’lim bitiruvchisi tomonidan kommunikativ kompetensiyani egallashi “uning mehnat bozoridagi raqobatdoshligiga,

kelajakda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi" [1].

O'qituvchilarimiz kognitiv-pragmatik usulda ishlashni – talabaga bilimberishni emas, uni yo'naltirib, izlantirib, o'yantirib kuzatayotgan hodisalari asosida o'z hukmini chiqarishini va uni ifodalashi lozimligini – o'zlar uchun asosiy me'yor sifatida belgilab olishlari shart. Biroq kuzatgan darslarimizning ko'pchiligidagi mifik tabo o'qituvchilarimiz o'quvchini dars davomida, odatda, ta'limiy o'yinlar vaqtidagina mustaqil izlanishlariga yo'l beradilar. Boshqa paytlarda esa, «darsning asosi»ni o'qituvchi tushuntiradi, o'qituvchi dastur va darslikda belgilangan mavzuni o'quvchiga (og'zaki bayon usulida) tayyor holda beradi.

Talabaning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar - bu ijtimoiy buyurtma, Davlat standarti, muassasaningta'lim maydoni, ta'limning uzluksizligi, shuningdek, pedagogik qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga turtki (motiv) berish, integratsion aloqalar, o'quv-uslubiy ta'minot, tashkiliy shakllar va o'qitish usullaridir.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda uzluksizlik prinsipidan foydalanish bu "ta'lim dasturlarini moslashtirishga qaratilgan bo'lib, dastlabki tayyorgarlikdan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limgacha bo'lgan bosqichlarda muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. Bir o'quv dasturidan "chiqish" tabiiy ravishda ikkinchisiga "kirish" bilan "bog'lanish" kerak, deb taxmin qilinadi.

Uzluksiz ta'lim sharoitida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun barcha tizimlarning umumiyligi maqsadlari asosida barcha dasturlarni boshidan oxirigacha standartlashtirish zarur». [5].

Oliy ta'limda talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish barcha fanlar bo'yicha (gumanitar, tabiatshunoslik, kasbiy, shuningdek, sinfdan tashqari ishlarda) amalga oshiriladi.

Gumanitar fanlarning mazmuni o'quvchilarning og'zaki yoki yozma matn tuzish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytiradi. Tabiatshunoslik fanlari yuqori darajadagi umumlashtirishni, sabab-oqibat aloqalarining mavjudligininazarda tutadi, bu esa kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdabilimlarni oshirishga imkon beradi.

Oliy ta'limda didaktik materiallar kommunikativ faoliyat, o'quvchilar faolligi, interaktiv faoliyat, topshiriq va kompetensiyalar faolligini o'z ichiga olgan didaktik prinsipga asoslangan bo'lishi kerak.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa, mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida joriy etilganyangi ta'lim standartlari va fan dasturlari o'quvchilarda kommunikativ qobiliyatni shakllantirish va takomillashtirish bilan uzviv

bog'liq ekanligi sababli istiqbolda katta o'zgarishlarga olib keladi. Ularning amalga oshishi esa, ta'lif tizimining asosiy shaxslari – o'qituvchi va o'quvchilarning oldilariga qo'yilgan vazifalarni qanchalik his etishlari, ularni sidqidildan bajarishga intilishlari hamda har bir fan mutaxassisini o'z fanining kommunikativ jihatini ochib bera olishi bilan uzviy bog'liq.

REFERENCES

1. Zimnyaya, I.A. Ta'limda kompetentsiyaga asoslangan yondashuvning natija-maqsadli asosi sifatida asosiy kompetensiyalar. Muallif versiyasi / I.A. Qish - M.: Tadqiqot. Mutaxassislar tayyorlashda sifat muammolari markazi, 2014.-40 b.
2. Safanova V.V. Madaniyatlar va tsivilizatsiyalar muloqoti kontekstida xalqaro muloqot tillarini o'rganish [Matn] / V.V. Safonov. Voronej: Origins, 2016. - 237 p.
3. Sedov, K.F. Nutq va shaxsiyat: kommunikativ kompetentsiya evolyutsiyasi / K.F.Sedov.- M., 2014.
4. Smorodinova M.V. Maktab ta'limi tizimida kompetensiyaviy yondashuvning o'rni// Yosh olim. -2010. - № 12. T.2. -C.110-112. — URL <https://molouch.ru/archive/23/2353/> (kirish sanasi: 26.02.2020)
5. Ganieva, M. (2023). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
6. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.
7. Ganiyeva, M. (2023). INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA, O'QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING, SHAKL, METOD VA VOSITALARI. Scienceweb academic papers collection.